


## SANOAT



Sanoat viloyatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki, sanoat o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingan, ekib o'stirilgan barcha resurslarni qayta ishlash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko'payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ni tashkil etdi.

Viloyatimizda 2020-yil yanvar-mart oylarida jami sanoat mahsulotining 2,1 foizi tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yaratilgan bo'lsa, 89,2 foizi qayta ishlash sanoatiga, 7,5 foizi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, 1,2 foizi Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishga to'g'ri kelgan.



*IFUT-2\* - Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha umumdavlat tasniflagich*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1090,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 23,4 mlrd.so'm, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 973,0 mlrd.so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 81,2 mlrd.so'm va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 13,1 mlrd.so'mlik ish hajmlari bajarildi.

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ulushi, foizda

tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



2,1

ishlab chiqaradigan sanoat



89,2

elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



7,5




suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish



1,2

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ko'rsatkichlari

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ni tashkil etdi.





Tuman (shahar) nomi	hajmi, mln.so'm
Arnasoy	-
Baxmal	217.2
G'allaorol	4 181.1
Sh.Rashidov	2 155.5
Do'stlik	-
Zomin	9 398.8
Zarbdor	-
Zafarobod	7.4
Mirzacho'l	-
Paxtakor	-
Forish	4 168.3
Yangiobod	-
Jizzax sh.	3 274.6

Hududlar miqyosida olib qaralganida, tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi bo'yicha asosiy ulush Zomin, G'allaorol va Forish tumanlari hamda Jizzax shahriga to'g'ri keladi.

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 973,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 89,2 % ni tashkil etdi.




O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulush to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda 35,5 % kuzatildi. Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 16,8 %ni, boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 10,1 %ni, kiyim ishlab chiqarish 6,5 %ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Tuman (shahar) nomi	hajmi, mln.so'm
Arnasoy	48 504.7
Baxmal	14 037.6
G'allaorol	21 186.6
Sh.Rashidov	50 874.4
Do'stlik	173 589.3
Zomin	44 117.5
Zarbdor	78 828.9
Zafarobod	23 121.3
Mirzacho'l	14 944.5
Paxtakor	65 037.2
Forish	26 349.5
Yangiobod	13 211.6
Jizzax sh.	399 151.4

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш ва озиқ-овқат саноатини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори тасдиқлангандан сўнг, Жиззах вилоятида амалга оширилган кенг кўламли ишлар натижасида саноатнинг ушбу йўналишида сезиларли ўсишга эришилди.


## 2020-yil 1-aprel holatiga ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



O'z navbatida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari eng yuqori o'sish sur'ati oqova suvlarni yuqotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 152,2 %ni tashkil etdi. Shuningdek tabiiy suv, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatida o'sish sur'ati 132,9%, suvni qayta ishlash va suvni ta'minlash xizmati 118,9 %da o'sish sur'atiga erishildi.


## 2020-yilning yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020-yilning yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,5 %ni ) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 114,9 % ni tashkil etdi.




## 2020-yilning yanvar-mart oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,1 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, ishlab chiqarish indeksi 54,5 foizini tashkil etdi.




## 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi

ulushi, foizda



Viloyat miqyosida quyi texnologiyadan foydalanish darajasi joriy yilning yanvar -mart oylari bo'yicha 64,3 foizni tashkil etib, asosiy ulushni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichda joriy yilning yanvar oyiga nisbatan taqqoslanganda kamaygan.


hajmi, mlrd.so'm



O'rta quyi texnologiyadan foydalanish darajasi joriy yilning 1-chorak yakuni bo'yicha 17,4 foizni tashkil etgan bo'lib, joriy yil yanvar oyiga nisbatan kamayishi kuzatilgan. O'rta yuqori texnologiyadan foydalanish darajasi esa, joriy yilning 1-chorak yakuni bo'yicha 5,0 foizni tashkil etgan bo'lib, joriy yil boshidan buyon o'sishi kuzatilgan.


Jizzax viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 1090,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,3% ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarish indeksi (107,3 %) ning yanvar oyi (102,8 %)ga nisbatan sezilarli (4,5 bandga) oshganligini ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi to'quv va trikotaj buyumlar ishlab chiqarish hajmining oshganligi bilan izohlash mumkin.

## Sanoatning ishlab chiqarish indeksi, foizda





## 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarish indeksi, foizda


Tuman (shahar) nomi	yanvar	yanvar-fevral	yanvar-mart
Arnasoy	125.9	106.1	111.1
Baxmal	101.7	105.3	121
G'allaorol	95.4	99.1	123.1
Sh.Rashidov	119.1	118.6	112.7
Do'stlik	97.7	96	119.6
Zomin	113.8	117.1	118
Zarbdor	153.7	136	123.8
Zafarobod	41.2	39.9	70.4
Mirzacho'l	122.1	111.7	122.5
Paxtakor	93.8	88.3	94
Forish	88.8	86.6	111.8
Yangiobod	100.5	101.6	122.9
Jizzax sh.	102.8	103.7	123.7

Joriy yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarish indeksi (IFO) 107,3 foizni tashkil etgan bo'lib, hududlarda eng yuqori ishlab chiqarish indeksi Zarbdor tumani 123,8 foiz, Jizzax sh. 123,7 foiz, G'allaorol tumani 123,1 foiz, Yangiobod tumani 122,9 foiz, Mirzacho'l tumani 122,5 foiz, Baxmal tumani 121,0 foizini tashkil etgan bo'lsa, eng past indeks Zafarobod tumanida 70,4 foiz va Paxtakor tumanida 94,0 foizni tashkil etdi.

Joriy yil boshiga nisbatan G'allaorol (95,4 foizdan 123,1 foizga), Do'stlik (97,7 foizdan 119,6 foizga) va Forish (88,8 foizdan 111,8 foizga) tumanlarida ijobiy o'sish sur'atlari kuzatildi.

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'ri, foizda

Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida jami sanoatda hududlarning ulushi sezilarli oshmoqda. Bunda eng yuqori ulush Jizzax shahrida (45,4 %) kuzatildi. Shu bilan birgalikda, Do'stlik (15,9%), Zarbdor (7,2%), Paxtakor (6,0%), Sh.Rashidov (5,0%) va Zomin (4,9 %), tumanlarida yuqori ulushni ko'rish mumkin.





## ISTE'MOL MAHSULOTLARI

2020-yilning 1-choragida

- iste'mol mahsulotlarida ishlab chiqarish hajmi 403,1 mlrd.so'm
- iste'mol mahsulotlarida o'sish sur'ati 99,8 foiz




Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

**403,1 mlrd. so'm**



oziq-ovqat mahsulotlari hajmi



**128,7 mlrd. so'm**



nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi

**274,4 mlrd. so'm**

### Jami iste'mol mahsulotlari tarkibi, foizda




Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 787,4 ming soʻmni tashkil etdi. Jumladan, Jizzax shahrida 2782,1 ming soʻmni, Doʻstlik tumanida 2650,1 ming soʻmni, Arnasoy tumanida 1056,7 ming soʻmni va Zarbdor tumanida 915,0 ming soʻmni tashkil etdi.


## 2020-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va isteʼmol mahsulotlari, ming soʻm

Tuman (shahar) nomi	Sanoat mahsulotlari	Isteʼmol mahsulotlari
Arnasoy	1 056.7	273.1
Baxmal	91.4	84
Gʻallaorol	147.9	89.1
Sh.Rashidov	245.8	106.5
Doʻstlik	2 650.1	875.3
Zomin	326.7	165.4
Zarbdor	915	135.4
Zafarobod	454.4	189.3
Mirzachoʻl	289	237.2
Paxtakor	873.7	158.2
Forish	330	147.7
Yangiobod	470.6	264.3
Jizzax sh.	2 782.1	1 055.6

Sanoatda aholi jon boshiga




Isteʼmolda aholi jon boshiga



Maʼlumot uchun: sanoat mahsulotlarida aholi jon boshiga ishlab chiqarish indeksi (IFO) orqali hisoblanadi, isteʼmol mahsulotlarida esa oʻtgan yilning mos davriga nisbatan hisob-kitob amalga oshiriladi.


Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1-aprel holatiga sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan 102 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,4% ni tashkil etdi.

## Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi, foizda




## Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi

2020-yil yanvar-mart oylaridagi hajmi, mln. so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan, joriy yilning 1-aprel holatiga sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan 2876 ta kichik biznes sub'ektlari tomonidan 585,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi, mlrd. so'm




## Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishi hajmi

2020-yil 1-aprel holatiga hajmi, mlrd. so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1-aprel holatiga kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan 327,4 mlrd. so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xududlar miqyosida qaraganda Jizzax shahrida 149,6 mlrd. so'm, Zomin 23,5 mlrd. so'm, Sh.Rashidov 23,5 mlrd. so'm, G'allaorol 23,5 mlrd. so'm, Forish 13,7 mlrd. so'mlik yuqori hajmli iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

## Iste'mol mahsulotlarida kichik biznesning hajmi va ulushi






### 2020-yil 1-aprel holatiga



## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Viloyatda 2020-yil 1-aprel holatiga 2900 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 969 tasi Jizzax shahrida, 625 tasi Sharof Rashidov, 252 tasi G'allaorol, 227 tasi Zomin, 128 tasi Forish, 116 tasi Zarbdor, 111 tasi Do'stlik, 103 tasi Paxtakor, 91 tasi Baxmal, 90 tasi Zafarobod, 82 tasi Mirzacho'l, 56 tasi Arnasoy va 50 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

## 2020-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda






Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalarini joylashgan hududlar 5 taligida Jizzax shahri (969 ta), Sharof Rashidov (660 ta), G'allaorol (264 ta), Zomin (250 ta) va Forish (128 ta) tumanlari qayd etildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibida sanoat korxonalarini o'rni, foizda

2020-yil 1-aprel holatiga



Joriy yilning 1-aprel holatiga Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan jami korxonalar tarkibida sanoat korxonalarini ulushi 16,1 foizini tashkil etadi. Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini tarkibida kichik biznes sub'yektlari ulushi 99,2 %ni tashkil etadi.

## **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi**

	<b>2019-yil yanvar-mart</b>	<b>2020-yil yanvar-mart</b>
Loyihalar soni	37	39
Korxonalar soni, birlikda	19	30
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. soʻmda	20.4	79.0
Eksport, ming AQSh dollarida	263	2 025.3
Yaratilgan ish oʻrinlari, birlikda	22	268

Mahalliy sanoatni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishda qoʻshimcha qiymat zanjirini yaratish, ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va turlarini koʻpaytirish, shuningdek, ichki va tashqi bozorlarda haridorgir sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmlarini oshirish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 martdagi 136-sonli qaroriga asosan viloyatda keng koʻlamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, dastur doirasida Jizzax viloyatida 2020 yil 1-choragida kiritilgan 39 ta loyiha boʻyicha 79,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 268 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlardan 2025,3 ming AQSh dollari miqdorida eksport amalga oshirildi.

**Sanoat statistikasi boʻlimi**  
**telefon: (72) 221-51-13**